

BADIY ASARDA KONFLIKT

*Maxmarajabova Mohinur Komil qizi**O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti**Tillar fakulteti ikkinchi bosqich talabasi**O'zbek tili va adabiyoti kafedrası Dots. – Usarova L.I.*

Annotatsiya: Mazkur maqolamizda badiiy asarning elementlaridan biri, personajlarning tashqi va ichki olamini yoritib berish uchun muhim vosita konflikt (ziddiyat) haqida so'z yuritamiz. Maqolada konflikt turlari haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, har bitta konflikt turiga adabiyotning durdonalari bo'lgan asarlardagi ziddiyatlar misol qilib keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Konflikt, xarakterlararo, psixologik, ziddiyat, qahramon va muhit, inson va tabiat, qarama-qarshiliklar, inson va taqdir.

Dunyo yaralibdiki, ziddiyat insonlar bilan yonma-yon yashab kelmoqda. Ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, oq va qora. Bu tushunchalar azal-azaldan bir-biriga zid, doim bir-biri bilan kurashda. Ularning qatorini yana davom ettirishimiz mumkin. Ana shu kurashlar yozuvchi tomonidan badiiy asarda jilolanadi. Badiiy asarda insonlarning orzulari, istaklari va maqsadlari bilan bir qatorda ana shu orzu, istak va maqsadlariga erishishda duch keladigan qiyinchilik va to'siqlari ham talqin qilinadi. O'sha qiyinchilik va to'siqlar badiiy asarda konfliktni (qarama-qarshilikni) yuzaga keltiradi.

Konflikt (lot. conflictus- to'qnashuv)- personajlarning asar sujetida badiiy ifodasini topadigan o'zaro to'qnashuv va kurashlari, qahramon bilan muhit orasida yoki uning ruhiyatida kechuvchi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar. Konflikt termini an'anaviy tarzda ko'proq epik va dramatik asarlarga nisbatan qo'llanadi¹. Qarama-qarshiliklar badiiy asarda asosiy o'rinni egallaydi. Konflikt sabab asarda voqealar rivoji keskinlik va dramatismga boy bo'ladi. Badiiy asar voqelikni aks ettirgani, uning markazida inson obrazi turgani uchun ham, insonning real hayotida mavjud konfliktlarning bari unda in'ikos etadi. Shu nuqtai nazardan badiiy konfliktning uchta turini farqlash mumkin: 1) xarakterlararo; 2) qahramon va muhit; 3) ichki (psixologik)²

Konflikt makon va zamon bilan uzviy bog'liq. Ba'zi konfliktlar davr o'tishi bilan yakunlanadi. Turli davrlarda turlicha mavzular konfliktga asos bo'ladi. Masalan, qadimgi dunyo adabiyotida taqdir taqozosi, o'rta asrlar asarlarida esa ilohiy kuch va insondagi xirs konfliktning asosini tashkil qilgan.

Bizningcha ziddiyatlarni yana quyidagi turlari mavjud:

¹ D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva "Adabiyotshunoslik lug'ati" Toshkent. Akademnashr, 2013

² D. Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva "Adabiyotshunoslik lug'ati" Toshkent. Akademnashr, 2013

1. Ichki (psixologik): Ichki ziddiyatda qahramon o‘zi bilan o‘zi kurashadi. Yana ham aniqroq qilib aytsak qahramon qo‘ruqlari, shubhalari yoki ichki kechinmalari bilan ziddiyatda bo‘ladi. Ichki konflikt ko‘pincha his-tuyg‘ular qarama-qarshiliklari atrofida yuzaga keladi. Masalan, Shekspirning “Gamlet” tragediyasi asosini bosh qahramon Gamletning ichki ziddiyatlari tashkil etadi. Bosh qahramon Gamlet otasining qotili o‘z amakisi Klavdiy ekanligini bilgach chuqur qayg‘uga botadi. U ancha vaqt o‘zi bilan, o‘zidagi chigal xayollar bilan kurash olib boradi.

Tirik qolmoq yo o‘lmoq? Shudir masala!

Qaysi biri bulardan bizga munosib?

Shu dilozor falakning tahqirlariga

Shikoyatsiz – shikvasiz chidab turmoqmi?

Yo‘qsa, unga rad-badal berib qo‘zg‘almoq,

Qurol olib yo yengmoq, yo vahv bo‘lmoqmi?

O‘lish... Unutilish. Masala tamom.

Tanamizga o‘ralgan ming-ming tashvishning

Zanjrin ilol-abad uzadi o‘lim.

Zotan dilning azamat armoni shu-ku!³

2. Inson va inson (xarakterlararo): Bu konflikt turida qahramon boshqa persanajlar qarshiligiga uchraydi. Bu jismoniy kurashlar va tortishuvlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu konflikt turiga durdona asarlarimizdan biri Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasiidagi domullo, ziyoli obrazlari bilan boyning tortishuvini misol qilsak bo‘ladi. Tortishuv boyning o‘g‘li Toshmurodni o‘qitish masalasi bo‘yicha bo‘ladi. Domullo boyga o‘g‘lini o‘qitishni maslahat beradi. Boy o‘g‘lini o‘qitmasligini aytadi. Ikkalasi uzoq bahslashishadi. Oxiri boy: “Ay domullo! Siz manga tahqiqchimi? O‘g‘ul maniki, davlat maniki, sizga nima? O‘quganni biri siz, yemoqg‘a noningiz yo‘q, bu holingiz ila manga nasihat qilursiz”⁴ – deb haydab yuboradi. Undan so‘ng ziyoli bilan ham xuddi shu mavzuda tortishadilar.

3. Inson va taqdir: Bu turda qahramon o‘z taqdiri bilan kurashadi. Oldindan belgilab qo‘yilgan o‘zgarmas kelajakka qarshi chiqmoqchi bo‘ladi. Aynan shunday ziddiyat yunon dramaturgi Sofoklning “Shoh Edip” tragediyasida o‘z aksini topgan. Fiva shahri podshohi Lay bir farzand ko‘rishi haqida bashorat qilinadi. Bu farzand o‘z otasini o‘ldirib, o‘z onasiga uylanishi aytiladi. Asar qahramonlari bu fojia yuz bermasligi uchun harakat qilishadi. Lekin afsuski, bu fojia yuz beradi.

4. Inson va g‘ayritabiiy: Bu turdagi to‘qnashuvda qahramon g‘ayritabiiy kuchlarga duch keladi. Bular afsonaviy mavjudotlar bilan janglarni o‘z ichiga oladi. Bu turdagi konflikt dostonlarda yoki fantastik asarlarda uchraydi. “Kuntug‘mish” dostonida Kuntug‘mishning ajdarho bilan olishuvi bunga misol.

³ V. Shekspir “Hamlet” Toshkent. G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1983

⁴ Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush” <https://n.ziyouz.com>>uzbek-nasri

5. Odam va tabiat: Bu konfliktda qahramon ob-havo, atrof-muhit yoki hayvonlar bilan qarama-qarshilikka duch keladi. Bu konflikt turiga taniqli yozuvchi Mirmuhsinning “Me’mor” romanini misol qilsak bo’ladi. Bu asarda iste’dodli me’mor Najmiddin Buxoriyning boshiga ko’plab kulfatlar tushadi. Yolg’iz o’g’li Nizomiddin hukmdor Shohruxga suiqasd qilishda ayblanib qatl etiladi. Shundan so’ng me’mor Hirotni tashlab ota yurtiga qaytishga majbur bo’ladi. Aynan shu safarida ularning karvoni tabiat bilan konfliktga duch keladi. Ya’ni sahroda issiqdan, suvsizlikdan qiynalishadi. Bu ham yetmagandek Xalachga yetishganda girdibod va bo’ron ko’tariladi. “Ko’p o’tmay, arava g’ildiraklari tagidagi qummi uchirayotgan shamol endi g’uvullab bo’ronga aylanib, aravalarni sariq chang o’ray boshladi. Otlar ham pishqirib, betoqat bo’lar, tuyoqlari qumga botib ketardi”⁵.

6. Madaniy va mafkuraviy: Bu ziddiyat qahramonning turli mafkuralar, madaniyatlar yoki dunyoqarashlar to’qnashuvida ishtirok etishini anglatadi. Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” asarida yangi mafkuralar va qadriyatlar to’qnashuvi yaqqol ko’zga tashlanadi. Ushbu asarda ikkita manqurt tilga olinadi. Nayman ona voqeasi tarixiy rivoyat tarzida keltirilgan. Birinchi manqurt mana shu rivoyatda Jo’lomondir. Ikkinchi manqurt asarning bosh qahramonlaridan biri Sobitjon. Jo’lomon shaxsi orqali zamonaviy manqurt Sobitjon qiyofasi yoritib berilgan. Bu manqurtlarning bir-biridan farqi, Jo’lomon jungjanglarning vahshiyliги tufayli, qiynoqlar va azob-uqubatlar natijasida ong-u shuurini yo’qotadi, Sobitjon esa ongli ravishda shu yo’lni tanlaydi. Sobitjonda ota- onaga mehr, qadriyatlarga hurmat tuyg’usi yo’q. Ajdodlar udumlarini mensimaslik, mansab-martabaga intilish, ochko’zlik illatlari mavjudligi Sobitni manqurt deb atashimizga sabab bo’ldi.

7. Oilaviy konflikt: Bu turdagi konfliktda o’zaro bir-biriga yaqin bo’lgan insonlar ya’ni, oila a’zolar o’rtasida kelishmovchiliklar, ziddiyatlar yuzaga keladi. Bu ziddiyatlarning turli sabablari bo’ladi. Ko’p hollarda bir-birlarini tushunmaslik ziddiyatning asosiy sababi bo’ladi. Bu turga “O’tkan kunlar” romanini misol qilsak bo’ladi. Asarning bosh qahramoni Otabek nafaqat begona shaxslar tomonidan, balki, o’z oila a’zolari tomonidan ham tushunmovchilik- larga duch keladi. Otabekni Marg’ilondan uylanganini eshitgach O’zbek oyimning jahli chiqadi. Shu orada ular o’rtasida konflikt yuzaga keladi. “- Man sani bu umid bilan boqib katta qilmag’on edim... San bizning naslimizni ko’tarish o’rniga, yerga urib bulg’ading. Biz sani Marg’ilon andisiga bunchalik mukkadan ketishingni o’ylamag’an edik, adabsiz... o’zingga qolsa shu marg’ilonliqni xoting’a hisoblab ketaberar ekansan-da, uyatsiz!.. Otabek ham qizishdi: - Xotin bo’lmasa nima, axir?! – Qoshliq, ko’zlik bir andi!”⁶

8. Inson va jamiyat: Asar qahramoni jamiyat me’yorlariga va qoidalariga qarshi bo’ladi. Bu ziddiyat adolatsizlik, kamsitish va zulmkor deb hisoblangan ijtimoiy

⁵ Mirmuhsin “Me’mor” Toshkent. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001

⁶ Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” Toshkent. Navro’z, 2019

me'yorlarga qarshi kurashni o'z ichiga oladi. Adabiyotimizning durdona asari bo'lgan "Ikki eshik orasi" qahramonlaridan biri bo'lgan Samadovni bunga yaqqol misol qilib olsak bo'ladi. U Samarqandlik o'qituvchi bo'lib, ayoli vafot etgandan so'ng qizi Robiya bilan Toshkentning No'g'ay qishlog'iga ko'chib borishadi va o'sha qishloqdagi bolalarga dars bera boshlaydi. Samadov qishloqqa kelib, Hasan dumaning uyida yashay boshlagandan qishloq bolalarining savodini chiqarish, ularning bilim olishlari uchun harakat qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Boshida eski bir binoda o'qita boshlaydi. Keyinchalik qishloq aholisi Samadovga uy qurub bermoqchi bo'ladi. Lekin Samadov: "– Agar Hasan akani qisib qo'ymagan bo'lsak, hasharchilarni maktab qurishga solsakmikin.... Bizga-ku uy topilar, maktab kerak"⁷- deb rad etadi. Shundan so'ng qishloq aholisi tomonidan maktab qurilishi boshlanib ketadi. Hammasi yaxshi ketayotgan kunlarda ba'zi bir ichi qora odamlarning qabih rejaları, noo'rin tuhmatlari tufayli Samadovni nohaq qamashadi. Nohaq ayblar qo'yilib, arzimagan sabablar keltiriladi. "Aybi shumishki, darsni programma bo'yicha o'tmaganmish, hisob ilmini Xorazmiy yaratgan deb maqtaganmish, bolalarga Bobur podshoning she'rlarini o'qitganmish. Rayondan beruxsat maktab qurganmish....."⁸

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, konflikt asarda muhim o'rin tutadi. Konfliktsiz asar bo'lmaydi, asarlarda baribir uning qaysidir turi ishtirok etadi. Shunday asarlar borki, o'zida bir nechta konflikt turini namoyon qiladi. Konflikt asarni qiziqarli, kulminatsiyaga boy bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva "Adabiyotshunoslik lug'ati" Toshkent. Akadernashr, 2013
- 2.V.Shekspir "Hamlet" Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983
3. Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" <https://n.ziyouz.com>>uzbek-nasri
4. Sofokl "Shoh Edip" Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979
5. Mirmuhsin "Me'mor" Toshkent. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001
6. Xalq og'zaki ijodi "Kuntug'mish" www.ziyouz.com kutubxonasi
7. Chingiz Aytmatov "Asrga tatigulik kun" Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi, 2018
8. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" Toshkent. Navro'z, 2019
9. O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi" Toshkent. Sharq, 2012

⁷ O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi" Toshkent. Sharq, 2012

⁸ O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi" Toshkent. Sharq, 2012